




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

2018 yilning yanvar - dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 6680,6 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 103,0 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar-6497,4 mlrd.so'mni (102,5 foiz), o'rmon xo'jaligida - 80,2 mlrd.so'mni (101,6 foiz), baliqchilik xo'jaligida-103,0 mlrd.so'mni (155,0 foiz) tashkil qildi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sishi asosan chorvachilik, baliq, o'rmon va ushbu sohada ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada oshishi bilan izohlanadi.

Xususan yuqori o'sish sur'atlari Mo'ynoq tumanida (146,6 foiz), Amudaryo (111,2 foiz), Ellikkala (107,5 foiz) tumanlarida kuzatildi. Nukus tumani (91,4 foiz), Qo'ng'iro't (94,9 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Amudaryo tumanining ulushi 17,9 foizni, Beruniy tumani 12,5 foizni tashkil etdi, To'rtko'l va Ellikkala tumanlari mos ravishda 11,4 foiz va 11,0 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Nukus shahrida (0,6 foiz) qayd etildi.

QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 2017 yilning mos davriga nisbatan o‘sishi 102,5 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 98,4 foizni, chorvachilik mahsulotlari–106,1 foizni tashkil qildi.


Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 70,6 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 27,4 foizi – fermer xo‘jaliklariga, 2,0 foizi – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha hududlar kesimida taqsimlanishi





Dehqonchilik: 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 2952,5 mlrd.so‘mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 98,4 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 45,7 foizni tashkil qildi.

Hosilni yig‘ib olish: Joriy yilning yanvar– dekabr oylarida 242702 tonna don (81,9 foiz) mahsulotlari, 67736 tonna kartoshka (110,3 foiz), 247319 tonna sabzavot (101,3 foiz), 138558 tonna poliz (102,6 foiz), 49750 tonna meva (105,8 foiz), 7323 tonna uzum (105,7 foiz) mahsulotlari yig‘ib olindi.

2018 yilning yanvar- dekabrda xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

| | Fermar xo‘jaliklari | | Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | | Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | |
|-----------------------|---------------------|-------------------------------|---|-------------------------------|--|-------------------------------|
| | <i>tonna</i> | <i>o‘shish surati, foizda</i> | <i>tonna</i> | <i>o‘shish surati, foizda</i> | <i>tonna</i> | <i>o‘shish surati, foizda</i> |
| Jami don mahsulotlari | 167150 | 77,3 | 70693 | 98,8 | 4859 | 55,1 |
| Kartoshka | 16993 | 116,9 | 50181 | 108,4 | 562 | 96,7 |
| Sabzavod | 69967 | 100,6 | 174389 | 101,9 | 2963 | 88,3 |
| Poliz | 61841 | 95,7 | 74949 | 109,8 | 1768 | 85,1 |
| Meva | 13998 | 100,7 | 29983 | 108,6 | 5769 | 104,7 |
| Uzum | 937 | 100,0 | 6043 | 104,5 | 343 | 162,6 |




Chorvachilik: 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 3502,6 mlrd.soʻmni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 106,1 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 54,3 foizni tashkil etdi.

Barcha toifadagi xoʻjaliklarda chorvachilik mahsulotlarining koʻpayishi goʻsht ishlab chiqarish hajmining – 5,1 foizga, sut – 3,4 foizga, tuxum – 16,6 foizga oʻsishi bilan izohlanadi.

2018 yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 106,5 ming tonna goʻsht, 376,5 ming tonna sut, 303,1 mln.dona tuxum, 81529 dona qorakoʻl teri va 1303 tonna juʻn mahsulotlari ishlab chiqarildi



Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi



Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 97,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 94,4 foizi, tuxumning 87,1 foizi, qorako'l terining 94,8 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

2018yil yanvar- dekabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari

| | miqdori | o'sish surati, % |
|--|--------------|------------------|
| Go'sht (tirik vaznda), ming tn. | 106,5 | 105,1 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 2,6 | 108,5 |
| Dehqon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 103,3 | 105,3 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 0,6 | 80,6 |
| Sut, ming tn. | 376,5 | 103,4 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 17,7 | 113,0 |
| Dehqon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 355,4 | 103,0 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 3,4 | 107,8 |

| | <i>miqdori</i> | <i>o'sish surati, %</i> |
|--|----------------|-----------------------------|
| Tuxum, mln. dona | 303,1 | 116,6 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 17,8 | 133,7 |
| Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 264,0 | 109,5 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 21,3 | 3,7m |

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

Joriy yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1094,2 ming boshga, shu jumladan sigirlar 315,3 ming boshga, qo'y va echkilar 1087,1 ming boshga, otlar 23394 parrandalar 4165,6 ming boshga yetdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 36,2 ming boshga (3,4 foizga), shu jumladan sigirlar 12,4 ming boshga (4,1 foizga), qo'y va echkilar 55,3 ming boshga (5,4 foizga), parrandalar 0,3 mln boshga (7,6 foizga) ko'paydi.

2018 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,5 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 10,0 foizi fermer xo'jaliklariga, 88,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 5,7 foizi fermer xo'jaliklariga, 89,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 4,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2019 yil 1 yanvar holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

| | <i>ming bosh</i> | <i>o'sish surati, %</i> |
|--|------------------|-----------------------------|
| Yirik shoxli qoramol | 1094,2 | 103,4 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 49,3 | 107,6 |
| Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 1035,8 | 103,2 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 9,1 | 107,6 |
| ulardan sigirlar | 315,3 | 104,1 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 15,6 | 106,7 |
| Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 297,1 | 104,0 |

| | <i>ming bosh</i> | <i>o'sish surati, %</i> |
|--|------------------|-----------------------------|
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 2,6 | 103,5 |
| Qo'y va echkilar | 1087,1 | 105,4 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 108,3 | 128,7 |
| Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 962,9 | 102,8 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 15,9 | 141,4 |
| Otlar | 23,4 | 106,1 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 4,0 | 124,5 |
| Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 19,1 | 102,6 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 0,3 | 126,3 |
| Parrandalar | 4165,6 | 107,6 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Fermer xo'jaliklari | 236,3 | 100,9 |
| Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 3725,1 | 106,5 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 204,2 | 145,2 |

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi
Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **N. Madreymov**

(61) 222-76-07